

TA'LIMDA MODULLI O'QITISH TEXNOLOGIYASI VA UNING TAXLILI

Ibragimova M.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro viloyat hududiy boshqarmasi Gijduvon tuman 2-son kasb hunar maktabi Informatika va Axborot texnologiyalar fani o'qituvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada informatika va maxsus fanlarning metodikasi innovatsion texnologiyalarini qo'llash sohasida ilmiy-uslubiy ishlarni tashkil etishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Mamlakat, iqtisodiyot, ta'lim, Texnologik, qurilmalar, jamiyat, dasturlar, innovatsion, pedagogik, modellashtirish, amaliyoti va loyihalash.

Bugungi kunda mamlakatimizni jadal isloh etish va modernizatsiya qilishning yangi davri – milliy taraqqiyotning yuksalish bosqichi izchil davom etmoqda. Modernizatsiya jarayonlari mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan bo'lib, iqtisodiyot, ta'lim va boshqa sohalarni modernizatsiya qilish, eng avvalo, ushbu jarayonlarda ishtirok etuvchi, ularni amalga oshiruvchi va doimiy ravishda takomillashtirib boruvchi jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va tafakkuridagi o'zgarishlarga, ularning demokratik va tub islohot jarayonlaridagi faolligi oshishiga bevosita bog'liq.

O'zbekistonning ertangi rivoji yo'lida tuzilgan dasturlar va ularni bajarish uchun yaratilgan moddiy asos va imkoniyatlar, safarbar etilgan sarmoyalarning barchasini amalga oshiradigan, ro'yobga chiqaradigan qudratli omil yuqori malakali ishchi kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan etuk mutaxassis yoshlar hisoblanadi.

Respublikamizda mustaqillik yillarida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun asosida ta'lim tizimi takomillashib bormoqda.

Ta'lim oluvchilarning qobiliyati, ong va ko'nikmalarini rivojlantirish, ilmiy – amaliy bilimlarini chuqurlashtirish masalasi bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Bu muammoni hal etish talabalarning qobiliyati o`lishiga va ongli ravishda o`z kasblariga qiziqishi hamda mas`uliyatini oshishiga yordam beradi.

Yangi turdagi ta`lim muassasalarining joriy etilishi, o`qituvchilar tomonidan qo`llanilayotgan ta`lim texnologiyalarining rang-barangligi, uzluksiz ta`limning barcha turlariga tajriba-sinov ishlarining keng yoyilishi, yuqori malakali, ijodiy ilmiy-pedagogik tafakkurga ega bo`lgan novator o`qituvchilarga bo`lgan ehtiyojni zarurat darajasiga ko`tardi. O`qituvchining variativ ta`lim amaliyotining ilg`or tajribalarini o`zlashtirish va ommalashtirish qobiliyati, uning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasiga bog`liq. Bunday tayyorgarlikning huquqiy, nazariy asoslarini «Ta`lim to`g`risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», uzluksiz ta`lim tizimini takomillashtirish, samaradorligini oshirishga qaratilgan Davlat dasturlari, Davlat ta`lim standartlari tashkil etadi va o`qituvchiga o`z-o`zini rivojlantirish, o`zligini namoyon qilishga imkoniyat beradi. Bu, o`z navbatida, oliy ta`lim muassasasida bo`ljak o`qituvchining ilmiy-nazariy, psixologik-pedagogik, ilmiy-metodik tayyorgarligini innovatsion faoliyatga yo`naltirish, uni pedagogik yangiliklarni qabul qilish, baholash va ta`lim maqsadlariga erishish yo`lida yangilikni to`g`ri va samarali qo`llay oladigan ijodkor shaxs sifatida shakllantirish talabini keltirib chiqardi.

Kimyo, oziq-ovqat, neft va gaz sanoati texnologiyasi va boshqa texnologiyalar sohasida erishilgan muvaffaqiyatlar xalq xo`jaligining texnik taraqqiyoti, mustaqil mamlakatimizning iqtisodiyoti va madaniyatini rivojlantirish, shuningdek aholining turmush farovonligini oshirish uchun birinchi darajali ahamiyatga ega bo`lgan sanoatni yaratish uchun asos bo`ladi.

Texnologik qurilmalar quvvatlarining ahamiyatli darajada o`lishi tashqi va ichki energiya resurslaridan optimal foydalanish bilan bog`liq qator masalalarning yuzaga kelishini belgilaydi. Shuning uchun ham amaldagi jihozlarni takomillashtirish va yangilarini loyihalashda asosiy e`tibor texnologik va konstruktiv parametrlarni hisoblashning aniq usullarini ishlab chiqishga qaratiladi. Ko`rsatilgan masalani echimi matematik modellashtrish usullarini takomillashtirish va ularni tadqiqot amaliyoti va loyihalash ishlariga tadbiiq etish asosida yotadi.



Modulli ta'lim texnologiyasining nazariy asoslari

Respublikamizda ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan tub islohotlar, pirovard natijada jahon talablari darajasidagi bilim va malakalarga ega, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashni ko'zda tutadi. Bu vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlari, o'quv rejalari hamda dasturlarida rivojlangan davlatlar tajribasidan o'rganilgan bilim va malakalar tizimi o'zining ijodiy aksini topmokda. Ushbu tizimda kasbiy ko'nikmalari ham o'zining ahamiyati va qo'lami bilan muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari va erkinliklariga rioya etilishini, jamiyatning ma'naviy yangilanishini, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan demokratik huquqiy davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurmoqda [2].

Oliy ta'lim tizimida tayyorlanayotgan bakalavrlarni, ayniqsa, kasb-xunar kollejlarda o'rgatuvchi o'qituvchi-tarbiyachilarni tayyorlash jarayoni oliy o'quv yurtlarida o'ziga xos shart-sharoitni talab qilish bilan birgalikda, fanlararo aloqadorlik xamda izchillik tamoyiliga tayangan xolda o'qituvchi-tarbiyaviy jarayonni tashkil etuvchi sharoitni yuzaga keltirishni taqozo qiladi. O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati deganda taqqoslash va o'rganish orqali amaldagi o'z pedagogik faoliyatini anglash, yanada yuqori natijalarga erishish maqsadida o'quv-tarbiya jarayonini o'zgartirish va rivojlantirish, yangi bilim, boshqa bir sifatdagi pedagogik tajribaga ega bo'lishdagi faoliyati tushuniladi. Innovatsion pedagogik faoliyat doirasida ta'lim oluvchilarni tushunish, unga ta'lim va tarbiya berish, rivojlantirishga bo'lgan yangicha falsafiy-pedagogik, psixologik-pedagogik yondashuvlar; ta'lim mazmuni va metodlarini qo'llashning yangi kontseptual pedagogik g'oyalari amalga oshiriladi.

Texnik fanlarni o'qitishda bo'lajak o'qituvchilarining matematika va tabiiy fanlar, ijtimoiy-iqtisodiy xamda umumkasbiy fanlarni uzviy aloqada o'rganishlari talabalarning bevosita kasbiy ko'nikma va malakalarining shakllanishida muxim omil bo'lib xizmat kiladi. SHu ma'noda, har bir mutaxassislik fanidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni o'tib borish jarayonida mutaxassislik tushunchalarining o'rni, uni bayon qilish zaruriyati, ketma-ketligi, boshqa tushunchalar bilan aloqadorligi va aloqadorlikni reflektiv (refleks, beixtiyor) va boshqa xossalarga bo'ysunishiga qarab, har bir talabaning o'zini qanday salohiyati bilan



qatnashayotganini aniqlash imkoniyatiga ega bo'lamiz. Har bir fan o'qituvchisi talabalarni nafaqat shu fan doirasida mavjud bo'lgan ilmiy ma'lumotlar bilan qurollantirishi, balki ular egallagan ilmiy tushunchalarni rivojlantirishi va boshqa tushunchalar bilan integrallashuvini ta'minlashi, xamda talabalarni milliy kadriyatlar ruhida tarbiyalashi lozim.

Xulosa:

«Texnologik jarayonlar va tizimlarni modellashtirish» fanini o'tish jarayonini takomillashtirish maqsadida o'quv jarayonini tashkil etish shakli sifatida o'quv materialini mantiqiy yakunlangan o'quv birliklari – o'quv modullariga bo'lib o'qitish tavsiya etildi. Modulli o'qitish talabalarning biluv faoliyatini faollashtiradi va ularda bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga hizmat qiladi.

Foylanilayotgan adabiyotgan

- 1.Modulli o'qitish g'oyasi dastlab B.F.Skinner [45] ishlarida ilgari surilgan bo'lib, horij olimlari J.Rassel' [42], B.Gol'dshmid va M.Gol'dshmid [43], G.Ouens [44] tadqiqotlarida nazariy asoslangan hamda rivojlantirilgan.
2. Jumladan N.H.Avliyoqulov va K.T. Olimov, N.N. Musaevalarning [11, 31, 32] pedagogik texnologiyani loyihalash bosqichlari va modulli o'qitish tamoyillarini ishlab chiqish borasidagi izlanishlarini,
- 3.G'.J.Yo'ldoshev, S.A.Usmonovanning [26] hozirgi pedagogik texnologiyalarning umumiy asoslarini yoritishga bag'ishlangan tadqiqotlarini
- 4.Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: SHarq, 1997. – 64 b.
- 5.Karimov I.A. YUksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.: O'zbekiston, 1995. – 32 b.
- 6.Avliyoqulov N.H. Zamonaviy o'qitish texnologiyalari. – Toshkent: Muallif, 2001. – 88 b.
- 7.Avliyoqulov N.H. O'qitishning modul tizimi va pedagogik texnologiyasi amaliy asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Buxoro, 2001. – 49 b.

